O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“BANK ISHI” kafedrasi

“BANK-MOLIYA TIZIMI ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI BANDLIGNI TA'MINLASH: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI

2026-yil 2-3-aprel



Samarqand - 2026

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“BANK ISHI” kafedrasi

“BANK-MOLIYA TIZIMI ORQALI KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI BANDLIGNI TA’MINLASH: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI

2026-yil 2-3-aprel



Samarqand - 2026

UO'K: 336:364.2:331.5
K 25
KBK: 65.262(5Uzb)

Bank-moliya tizimi orqali kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligni ta'minlash: muammo va yechimlar*: // Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2026-yil 2-3-aprel. Samarqand, SamISI, 2026. – 822 bet.*

Bosh muharrir:
Karimova A.M. — i.f.d., prof., "Bank ishi" kafedrasi mudiri, Samarqand iqtisodiyot va servis institute.

Tahrirchi:
Tursunov F.M. — "Bank ishi" kafedrasi assistenti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti.

To'plamga iqtisodchi olimlar, doktorantlar, magistrlar, talabalarning kichik va o'rta biznes subyektlarini rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini taminlashda tijorat banklarining o'rni, yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta'minlashda tijorat banklarini rolini oshirish, ta'lim va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish, raqamli bank xizmatlari va fintex yechimlar orqali ijtimoiy-iqtisodiy faollikni oshirish, xalqaro tajriba va ilg'or amaliyotlar orqali kambag'allikni qisqartirish masalalariga bag'ishlangan ilmiy maqolalar kiritilgan.

To'plam professor-o'qituvchilar, katta ilmiy xodimlar, magistrlar, talabalar va amaliyot xodimlari uchun foydalanishga mo'ljallangan.

Tashkiliy qo'mita a'zolari:

Po'latov M.E.	i.f.d., professor, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori
Karimova A.M.	i.f.d., professor, "Bank ishi" kafedrasi mudiri, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Niyozov Z.D.	i.f.n., "Bank ishi" kafedrasi professori v.b., Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Tursunov F.M.	"Bank ishi" kafedrasi assistenti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Maqolalarda keltirilgan raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar mas'ul. Ularning ayrim fikrlari tashkiliy qo'mita qarashlariga to'g'ri kelmasligi mumkin.

ISBN: 978-9910-225-66-6

©Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2026.
© "STEP-SEL" MChJ nashriyoti, 2026.

QO‘SHIB YUBORISH JARAYONLARIDA KORXONALAR FAOLIYATINI TUGATISHNI HISOB VA HISOBOTDA AKS ETTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Abdurasulov Jamshidbek Axmad ug‘li
SamISI tayanch doktoranti
e-mail: jamshidbek.abdurasulov@mail.ru
ORCID: 0000-0003-1630-86940

Annotatsiya. *Maqolada korxonalarni qayta tashkil etish jarayonlarini buxgalteriya hisobida aks ettirish masalalari xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida tahlil qilingan. Biznes birlashuvlari shakllarida aktivlar, majburiyatlar va kapitalni tan olish hamda baholash tartiblari yoritilgan. Shuningdek, MHXS va milliy standartlar o‘rtasidagi farqlar tahlil qilinib, ularni uyg‘unlashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *qayta tashkil etish, biznes birlashuvlari, MHXS, gudvill, adolatli qiymat, konsolidatsiya.*

Аннотация. *В статье исследованы вопросы отражения процессов реорганизации предприятий в бухгалтерском учёте на основе требований международных стандартов финансовой отчётности. Рассмотрены порядок признания и оценки активов, обязательств и собственного капитала в условиях объединений бизнеса. Проведён сравнительный анализ международных и национальных стандартов бухгалтерского учёта, а также разработаны научно-практические рекомендации по гармонизации национальной практики с МСФО.*

Ключевые слова: *реорганизация предприятий, объединения бизнеса, международные стандарты финансовой отчётности, гудвилл, справедливая стоимость, консолидация.*

Abstract. *This article examines the accounting treatment of corporate reorganization processes in accordance with International Financial Reporting Standards (IFRS). The recognition and measurement of assets, liabilities, and equity in business combinations are analyzed. A comparative analysis of international and national accounting standards is conducted, and scientific and practical recommendations for harmonizing national accounting practices with IFRS are proposed.*

Keywords: *corporate reorganization, business combinations, International Financial Reporting Standards (IFRS), goodwill, fair value, consolidation.*

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy sub’ektlar faoliyatini samarali tashkil etish, ularning moliyaviy barqarorligini ta’minlash va raqobatbardoshligini oshirish muhim strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda biznes birlashuvlari, jumladan, korxonalarni

qo‘shib yuborish va qo‘shib olish jarayonlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday jarayonlar orqali korxonalar resurslarini integratsiyalash, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, harajatlarni qisqartirish va bozordagi pozitsiyasini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Qo‘shib yuborish jarayonida bir yoki bir nechta korxonalar o‘z faoliyatini tugatib, barcha aktiv va majburiyatlarini qabul qiluvchi korxonaga o‘tkazadi. Bu esa buxgalteriya hisobida murakkab va ko‘p bosqichli operatsiyalarni amalga oshirishni talab etadi. Xususan, aktiv va majburiyatlarni baholash, ularni hisobdan chiqarish, tugatish balansi tuzish hamda moliyaviy natijalarni aniqlash kabi masalalar ilmiy asoslangan yondashuvni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, qo‘shib yuborish jarayonlarida korxonalar faoliyatini tugatishni hisob va hisobotda to‘g‘ri va shaffof aks ettirish moliyaviy hisobotning ishonchliligi, axborot sifatini ta’minlash hamda investorlar uchun muhim qarorlar qabul qilishda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Hozirgi kunda jahon amaliyotida biznes birlashuvlari iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida keng qo‘llanilmoqda. O‘zbekistonda ham iqtisodiyotni liberallashtirish, xususiy sektor ulushini oshirish va investitsion muhitni yaxshilashga qaratilgan islohotlar natijasida qo‘shib yuborish va qo‘shib olish jarayonlari tobora faollashib bormoqda. Bu esa mazkur jarayonlarni buxgalteriya hisobida to‘g‘ri tashkil etish va hisobotda ishonchli aks ettirish zaruratini yanada oshiradi.

Biroq, amalda qo‘shib yuborilayotgan korxonalar faoliyatini tugatish jarayonlarini hisob va hisobotda aks ettirish bo‘yicha yagona, tizimlashgan va xalqaro moliyaviy hisobot standartlari talablariga to‘liq mos keluvchi uslubiy yondashuv mavjud emas. Bu holat tugatish jarayonlarida boshlang‘ich hujjatlar, buxgalteriya yozuvlari va tugatish balansi o‘rtasidagi uzviylikning buzilishiga olib kelib, hisob ma’lumotlarining ishonchliligi va shaffofligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, milliy buxgalteriya hisobi amaliyotida gudvill va hariddan kelgan foyda kabi iqtisodiy kategoriyalarni hisobga olish va baholash bo‘yicha aniq uslubiy asoslar yetarli darajada shakllanmagan. Bu esa moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar bilan taqqoslash imkoniyatini cheklaydi va investitsion jozibadorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, qo‘shib yuborish jarayonlarida korxonalar faoliyatini tugatishni hisob va hisobotda aks ettirishning ilmiy asoslangan tashkiliy-uslubiy yondashuvlarini ishlab chiqish, ularni xalqaro moliyaviy hisobot standartlari talablariga muvofiqlashtirish hamda amaliyotga joriy etish mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

Qo‘shib yuborish shaklida qayta tashkil etilayotgan korxonalar faoliyatini tugatish jarayonlarini hisob va hisobotda aks ettirish masalasi zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Biznes birlashuvlari iqtisodiyotda resurslarni samarali taqsimlash, kapital konsentratsiyasini kuchaytirish, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash hamda korxonalar raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim iqtisodiy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, mazkur jarayonlarni buxgalteriya hisobida to‘g‘ri, tizimli va shaffof aks ettirish moliyaviy axborotning ishonchliligi, to‘liqligi va xalqaro miqyosda taqqoslanuvchanligini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, amalda qo‘shib yuborilayotgan

korxonalar faoliyatini tugatish jarayonlarini hisob va hisobotda aks ettirish bo‘yicha yagona, kompleks va xalqaro moliyaviy hisobot standartlari talablariga to‘liq mos keluvchi uslubiy yondashuv yetarli darajada shakllanmagan. Natijada, tugatish jarayonlarini rasmiylashtirishda qo‘llaniladigan boshlang‘ich hujjatlar tizimi, buxgalteriya yozuvlari va tugatish balansi o‘rtasidagi uzviylik va mantiqiy izchillik ta’minlanmaydi. Bu holat esa hisob ma’lumotlarining ishonchliligiga, ularning tahlil qilinishi va foydalanilishi samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida tadqiqot doirasida qo‘shib yuborish jarayonlarini hisobga olishning xalqaro moliyaviy hisobot standartlari talablariga asoslangan yaxlit tashkiliy-uslubiy modeli ishlab chiqildi. Ushbu model qo‘shib yuborish jarayonlarini hisobda aks ettirishni tizimli ravishda tashkil etish, axborot oqimlarini tartibga solish hamda hisobot ma’lumotlarining aniqligi va ishonchliligini ta’minlashga qaratilgan. Taklif etilgan model doirasida, avvalo, tugatish jarayonlarini rasmiylashtiruvchi boshlang‘ich hujjatlar tizimi takomillashtirildi. Jumladan, aktivlar va majburiyatlarni inventarizatsiya qilish, ularni adolatli qiymat asosida qayta baholash hamda qabul qilish-topshirish dalolatnomalarini rasmiylashtirish tartibi ilmiy jihatdan asoslab berildi. Bu yondashuv tugatish jarayonida aktiv va majburiyatlarning haqqoniy va xolis baholanishini ta’minlash imkonini beradi.

Shu bilan birga, tadqiqotda tugatish jarayonlarini buxgalteriya hisobida aks ettirish mexanizmi takomillashtirilib, maxsus schyotlar tizimi va ular o‘rtasidagi korrespondensiya tartibi ishlab chiqildi. Xususan, aktivlarni hisobdan chiqarish, majburiyatlarni yopish va ularni qabul qiluvchi korxona balansiga o‘tkazish jarayonlari ikki yoqlama yozuvlar tamoyili asosida mantiqiy va izchil tarzda asoslab berildi. Shuningdek, hisob tizimini takomillashtirish maqsadida 8531 – “Qo‘shib olingan aktivlar”, 8532 – “Qabul qilingan majburiyatlar” va 8533 – “Qayta tashkil etish natijasi” kabi yangi analitik schyotlarni joriy etish taklif etildi. Mazkur schyotlar orqali qo‘shib yuborish jarayonlarida aktivlar va majburiyatlarning aniq hisobini yuritish, moliyaviy natijalarni xolis shakllantirish hamda hisob ma’lumotlarining tahlil imkoniyatlarini kengaytirish ta’minlanadi.

Xulosa qilib aytganda, modelning muhim tarkibiy qismi sifatida tugatish balansi tuzish uslubiyati ham takomillashtirildi. Unda aktivlar va majburiyatlarni adolatli qiymatda baholash, ularning yakuniy taqsimoti hamda tugatish natijasida yuzaga kelgan moliyaviy natijalarni aniqlashning ilmiy asoslangan tartibi ishlab chiqildi. Bu esa tugatish balansi orqali korxonaning haqiqiy moliyaviy holatini to‘liq va ishonchli aks ettirish imkonini beradi. Tadqiqot doirasida biznes birlashuvi jarayonida shakllanadigan gudvill va hariddan kelgan foyda kabi muhim iqtisodiy kategoriyalarni hisobga olish masalalari ham atroflicha tahlil qilindi. Gudvill korxonaning bozordagi obro‘si, mijozlar bazasi, innovatsion salohiyati va boshqa noaniq aktivlarini ifoda etuvchi iqtisodiy kategoriya sifatida asoslanib, uni hisobga olish xalqaro moliyaviy hisobot standartlari talablariga muvofiq amalga oshirilishi zarurligi ko‘rsatib o‘tildi. Shu bilan birga, hariddan kelgan foydani buxgalteriya hisobida aniq va alohida aks ettirish maqsadida 9321 – “Hariddan kelgan foyda” schyotini joriy etish taklif etildi. Bu esa moliyaviy natijalarning shaffofligi va hisobot axborotining ishonchliligini oshirishga xizmat

qiladi. Taklif etilgan tashkiliy-uslubiy yondashuv qo‘shib yuborish jarayonlarida buxgalteriya hisobini takomillashtirish, hisob ma’lumotlarining ishonchliligi, aniqligi va taqqoslanuvchanligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, mazkur yondashuv milliy buxgalteriya hisob tizimini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari talablariga muvofiqlashtirish, korxonalarning investitsion jozibadorligini oshirish va moliyaviy boshqaruv samaradorligini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi PQ–4611-son qarori «Buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida».
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF–60-son farmoni «2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida».
3. O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonuni. – Toshkent, 2016 (yangi tahrir).
4. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IFRS / MHXS). – London: IFRS Foundation, amaldagi nashr.
5. IFRS 3 – Business Combinations (MHXS 3 «Biznes birlashuvlari»). – IFRS Foundation.
6. IFRS 10 – Consolidated Financial Statements (MHXS 10 «Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot»). – IFRS Foundation.
7. IFRS 13 – Fair Value Measurement (MHXS 13 «Adolatli qiymatni aniqlash»). – IFRS Foundation.
8. O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi milliy standartlari: BHMS 23 – «Qayta tashkil etishni amalga oshirishda moliyaviy hisobotni shakllantirish».
BHMS 8 – «Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlar va sho‘’ba xo‘jalik jamiyatlariga investitsiyalar».
9. Plotnikov V.S., Plotnikova O.V. Ob’edineniye biznesa i konsolidirovannaya finansovaya otchetnost. – Moskva: Finansi i statistika, 2019.
10. Tashnazarov S.N. Moliyaviy hisobot: nazariya va metodologiya. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.

BIZNESNI TADBIQ QILISHDA XALQARO MARKETING STRATEGIYALARI

Abdullayeva Zulfiya Izzatovna
SamISI “Real iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti, PhD
Abdullayeva Gulrux Erkin qizi
SamISI magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada biznes faoliyatini rivojlantirish jarayonida xalqaro marketing strategiyalarining ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilingan.*

	Xolboyev S. *Yuldashev X.* *G‘ayratov M.*		
162	*Abdurasulov J.A.*	*Qo‘shib yuborish jarayonlarida korxonalar faoliyatini tugatishni hisob va hisobotda aks ettirishni takomillashtirish masalalari*	730
163	*Abdullayeva Z.* *Abdullayeva G.*	*Biznesni tadbiq qilishda xalqaro marketing strategiyalari*	733
164	*Odilov A.A.*	*Contemporary poverty reduction strategies in uzbekistan: integration of international experience and national practices*	738
165	*Niyozov Z.* *Zubaydulloyeva D.*	*Mahallabay ishlash jarayonida banklarning mikromoliyalash va "social banking" modellarini joriy etish istiqbollari*	740
166	*O‘ktamova N.* *Egamova N.*	*Raqamli bank xizmatlari sharoitida kredit riskini boshqarishda irb yondashuvining samaradorligi: basel ii va iii asosida tahlil*	743
167	*Eshkarayev B.*	*Raqamli iqtisodiyot sharoitida qqs ma’murchiligini takomillashtirish*	749
168	*Xoliqulov O‘.* *Abduvaliyev B.*	*Islomiy moliya instrumentlari orqali kambag'allikni qisqartirish: o'zbekiston misolida tahlil va siyosiy tavsiyalar*	753
169	*Xolikulov O‘.* *Nosirov Sh.* *Asroqulov Q.*	*Jahon amaliyotidagi bank texnologiyalari va ularning o’zbekistonda qo’llanilishi*	758
170	*Ruzimuratov O.B.* *Shodiyev Sh.R.*	*Rivojlanayotgan mamlakatlarda raqamli bankning xususiyatlari va uning iqtisodiyotdagi o‘rni*	761
171	*Sindarov Sh.* *Eshonqulov P.*	*O’zbekiston bank tizimida islom banklari mahsulotlarining joriy qilinishi*	766
172	*Усмонов Ф.Ф.* *Шарипова Н.Д.*	*Сравнительный анализ роли банков в снижении бедности: опыт развивающихся стран*	772
173	*Fayzullayev N.B.*	*Norasmiy va nostandart bandlikni statistik baholash metodikalari: xalqaro tajriba va o‘zbekiston amaliyoti*	776
174	*Qodirov Y.S* *Karimov Sh.*	*Savdo korxonalarini rivojlantirishda tijorat banklarida olib borilayotganislohatlar*	780
175	*Nasimov I.X.*	*Kambag‘allikni belgilovchi omillar hamda kambag‘allikni qisqartirishda xitoyning x’ian tajribasi*	786
176	*Yakubova Sh.Sh.*	*Development of a theoretical concept for financial reporting in the context of uzbekistan*	789

“BANK-MOLIYA TIZIMI ORQALI KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI BANDLIGNI TA’MINLASH: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI

2026-yil 2-3-aprel

“STAP-SEL” MChJ. nashriyoti.
Samarqand - 2026.

ISBN: 978-9910-225-66-6

Tasdiqnona № 033337 (27.07.2022)
© **“STAP-SEL” MChJ.** nashriyoti,
Samarqand-2026

1342

Qog‘oz bichimi A5, 60x84 1/16, Ofset qog‘ozi.
“Times New Roman” garniturasi.
Nashr bosma tabog‘i 51,37
Buyurtma № 0062A/26. Adadi 25 nusxa

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining matbaa bo‘limida chop etildi.
LICENSE № 025316.
REESTR № X-119112.
Manzil: Samarqand shahar, Shoxrux ko’chasi 60-uy.